

ISSN:3060-4567 Modern education and development
ICHKI AUDIT TEKSHIRUVI NATIJALARI VA ULARNI
TAQDIM ETISH MASALALARI

*O`zbekiston Respublikasi Bank-Moliya akademiyasi magistranti
Zoirov Sherzod Abdisodik o'g'li*

ANNOTATSIYA: *Ushbu maqolada ichki audit tekshiruvlari natijalari va ularning taqdim etish masalalari to‘g‘risida ma‘lumotlar keltirilgan. Shuningdek, auditlarning rivojlanish tarixi va vazifalari to‘g‘risida ham to‘xtalib o‘tilgan.*

KALIT SO‘ZLAR: *Auditorlik riski, auditorlar xulosalari, ko‘rsatkichlar tarkibi, ichki va tashqi audit, Ichki audit xizmati, ichki hujjatlar, ichki nazorat, auditning samaradorligi.*

KIRISH

Audit katta tarixga ega bo‘lib, birinchi mustaqil auditorlar Yevropa aksioner kompaniyalarida XIX asrda faoliyat ko‘rsata boshlaganlar. «Audit» suzining tarjimasi «tinglovchi» ma’nosini anglatadi. Auditning paydo bo‘lishi korxonani bevosita boshqarish bilan shug‘ullanuvchilar (ma‘muriyat, menedjerlar) hamda uning faoliyatiga o‘z mablag‘larini yo‘naltiruvchilar (mulkdorlar, aksionerlar, investorlar) o‘rtasidagi manfaat bilan bevosita bog‘lik. Korxona egalari faqat boshqaruvchilar va ularga buysinuvchi buxgalterlar tomonidan berilgan moliyaviy axborotlarga ishonishni xoxlamas edilar. Shuningdek, korxonalarning inqirozi hamda ma‘muriyat tomonidan aldashlarning o’sishi moliyaviy quyilmalar tavakkalchilagini oshirdi. Aksionerlar, ma‘muriyat tomonidan berilgan moliyaviy hisobotlar korxonaning xaqiqiy moliyaviy holatini aks ettirilishini xoxlar edilar. Korxonaning moliyaviy holatini aks ettiruvchi axborotlarning to‘g‘riligini tekshirish va moliyaviy hisobotlarning to‘g‘riligini tasdiqlash uchun tashqaridan mutaxassislar taklif qilinar edi. Bu mutaxassislar oldiga quyilgan asosiy talablar ularning xalolligi va mustaqilligidan iborat edi. U davrlarda kishilar uchun buxgalteriya hisobi buyicha chuqur bilimlarga ega bo‘lishlari talab etilmas edi, ammo buxgalteriya hisobini murakkablashuvi bilan

auditorlardan yuqori darajadagi professional tayyorgarlik talab qilina boshlandi. Auditning tarixiy vatani Angliya hisoblanadi. Chunki 1844 yilda Angliyada aksiyadorlik kompaniyalar to'g'risidagi qonunlar amalda qo'llanila boshlaydi, bunga ko'ra aksioner kompaniya boshqaruvi 1 yilda kamida 1 marotaba buxgalteriya hisoblari va hisobotlarini tekshirish uchun maxsus mutaxasisni auditorni taklif qilishlari shart.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ichki audit xizmati iqtisodiy sub'ekt tomonidan tashkil etilgan, uning rahbariyati yoki mulkdorlari manfaatlariga xizmat qiluvchi, ichki hujjatlar bilan tartibga solingan buxgalteriya hisobini yuritish bo'yicha o'rnatilgan tartibga riosa qilish ustidan nazorat tizimi hamda ichki nazorat tizimining faoliyatini ishonchliligi tushuniladi. Ichki audit xizmati bir tomondan - korxonalar tuzilmasi bo'g'lnlari faoliyat samaradorligi ustidan nazorat usullaridan biridir. Ichki auditning tashkil qilinishi, roli va funksiyalari, aynan esa quyidagilarga bog'liq ravishda uning rahbarlari yoki mulkdorlari tomonidan belgilanadi:

- korxona faoliyatining mazmuni va o'ziga xosligi;
- korxonaning moliyaviy-iqtisodiy ko'rsatkichlari hajmi;
- aksiyadorlik jamiyatini korporativ pritsipida boshqarish tizimi;
- ichki nazorat holati.

Ichki audit samaradorligi auditorlik tashkiloti tomonidan auditorlik riski va ichki nazorat tizimini baholashda muhim omilga aylanishi hamda auditorlik tashkiloti bajarishi lozim bo'lgan ishlar hajmini jiddiy ravishda qisqartirishi mumkin, vaholanki, bunday tartibot ishlarini to'liq amalga oshirish zarurati ham istisno qilinishi mumkin emas.

Agar auditorlik tashkiloti ichki audit ishidan foydalanishga qaror qilsa, uni o'rghanishda davom etishi, ichki audit ish hujjatlari bilan tanishishi va quyidagilarga ishonch hosil qilishi lozim:

- tashqi auditor maqsadlariga javob beruvchi ichki audit ishi dasturlari va hajmi;
- ichki auditorlar faoliyati reja bo'yicha olib boriladi va hujjat bilan rasmiylashtiriladi;

- ichki auditorlar xulosalari ular tomonidan olingan ma'lumotlarga asoslangan, ichki auditorlar tomonidan tayyorlangan hisobotlar mazmuni esa ular tomonidan amalga oshirilgan ishlari natijalariga mos keladi;
- ishlarni rejalashtirishda yuqori risklar zonasini e'tiborga olinadi va ichki audit tomonidan tekshiriladi;
- rahbariyati va mulkdorlarning ichki auditor tomonidan qo'yilgan masala, taklif va eslatmalarga munosabati konstruktiv ko'rinishga ega.

NATIJALAR

Ichki audit xizmati xodimlarining professional malakasi ichki audit xizmativa har bir auditoring mas'ulligini belgilaydi. Har bir auditor buxgalteriya hisobi, iqtisodiyot, moliyaviy ish, statistika, ma'lumotlarni qayta ishlash, texnika, soliqqatortish va huquq sohasida puxta bilimga, ish faoliyati davomida ichki auditstandartlari, protseduralari va usullarini, buxgalteriya hisob printsipi va metodlari, boshqaruv printsiplari, AKTda joylashtirilgan axborot tizimi haqida tasavvurga egabo'lishi lozim.

Bunda: bajarayotgan vazifalari harakteriga mos oliv ma'lumotga hamdategishli kasbiy ko'nikma va malakaga ega bo'lishlari; bank qonunchiligi hamda Markaziy bankning bank faoliyatini tartibga soluvchi yo'riqnomalar me'yoriyhujjalarni bilishlari; umumiyligini qabul qilingan xalqaro buxgalteriya va auditandozalarini yaxshi bilishlari; o'z malakalarini doimiy ravishda oshirib borishlari; vazifalarni hal etish ko'lami va muddatiga doir auditorlik dasturlarirejalashtirilayotganda cheklov larga ega bo'lmasliklari lozim.

Tekshiruvlar "Audit xizmatining banklar faoliyatini audit tekshiruvidan o'tkazish to'g'risida"gi tartibiga asosan amalga oshiriladi. Audit xizmatining ishdasturi: audit tekshiruvi aniq maqsadga ega bo'lishi; dastur qamrov doirasi auditmaqsadlariga erishish uchun yetarli bo'lishi; bajarilgan ish rejasi va ko'rildigan harbir tarmoqning zarur tamoyillari tasvirini o'z ichiga olishi talablariga javob berishi lozim.

MUHOKAMA

Ichki va tashqi auditdan kutilgan asosiy maqsad ilgariroq ta'kidlaganidek, ko'p jihatdan o'xshash bo'lib, nazorat qilib borishdan iborat. Biroq ular

o'rtasidamuayyan farqlar ham borki, bu auditor xarakteriga bog'liq. Tashqi audit hisobtizimini baholash, bankning aktiv va passivlarini baholash va tekshirish, mavjudichki nazorat tizimini testdan o'tkazishdan iborat. Tashqi audit tekshirilayotganbankning taqdim etgan hisoboti va balanslari haqiqatga to'g'ri keladimi yokiyo'qmi, uning moliyaviy ahvoli va muayyan davrdagi faoliyati natijalarinibaholashdan iborat. Chetdan taklif etilgan, mustaqil auditorlik firmalari tomonidantayyorlangan xulosalar yuqori tashkilotlarga, aktsiyadorlar, kreditorlar vahokazolarga mo'ljallanadi va undan ichki auditorlar ham foydalanadi.

O'zbekiston Respublikasi Bank Moliya Akademiyasi tinglovchisi Shukurov Fayzulla Bobonorovich, Bank moliya akademiyasi Qayta tayyorlash va malaka oshirish fakulteti dekani PhD Rashidov Farruxlar ham o'z ilmiy ishlarida ta'kidlganidek.

Ichki audit o'tkazish uslubiyatini puxta ishlab chiqilishi nafaqat ichki auditorga, balki moliyaviy nazorat xodimlariga ham ish jarayonida katta yordam beradi. Chunki samarali tashkil qilingan ichki audit ma'lumotlari ishonchli hisoblanadi. Davlat moliyaviy nazoratida ichki audit ma'lumotlaridan keng foydalaniladi. Chunki ichki auditor tashkilotda doimiy faoliyat olib borib, ish faoliyatini qanday tashkil qilinganligi, xato va kamchiliklar mavjud bo'lgan bo'limlarni ish jarayonini tahlil va nazorat qilib boradi. Jahon amaliyotini olib qaraydigan bo'lsak ichki audit tizimiga, uning tashkil qilinishiga va yuritishiga juda katta e'tibor berilganini ko'ramiz. Chunki ichki audit tashkilotni doimiy tahlil qilib borganligi bois, samaradorlik ko'rsatkichlarining yuqoriligini ko'rishimiz mumkin. Tashkilotning faoliyat yuritayotgan har bir bo'limini o'ziga xos jihatlarini hisobga olgan holda belgilangan qonunlar doirasida olib borilishi, har bir xodimni o'z lavozimiga mas'uliyat bilan èndoshishini ta'minlash hamda aniqlangan kamchiliklar borasida ularni bartaraf etuvchi chora-tadbirlarni ishlab chiqilishi samaradorlikni oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi, deya xulosa qilmoqdalar.

XULOSA Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bozor iqtisodiyoti sharoitida banklarning samaradorlik ko'rsatkichlari auditini respublikamiz bank

tizimidagi o'rni, ahamiyatini o'rgangan holda, bank auditining zarurligi va respublikamizda uning huquqiy asoslarini yaratilishi, tijorat banklari ko'rsatkichlarini audit qilish usullari va nazorat turlari, O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida audit o'tkazishni tashkil qilish asoslari batafsil o'rganib chiqildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.** Norqobilov S., Dadaboyeva H., Jo'rayev O'. Xalqaro amaliyotda bank nazorati. Magistrlar uchun darslik. T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2007 y
- 2.** Смирнова Л. Банковский аудит. Учеб. Пос. ФиС. М.: - 2006й.
- 3.** Sanayev N., Narziyev R. Audit. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. T.: "Sharq" 2001y.
- 4.** Musayev H.N. Audit. Darslik. Toshkent-“Moliya” -2003y.
- 5.** Подолский В.И. Аудит. Учебник для вузов. Юнити-Дана. М.: - 2007.
- 6.** Шеремет А.Д. Аудит. Учебник. Инфра-М.: - 2006й.
- 7.** Суйц В.П., Смирнова Л.Р., Дубровина Т.А. Аудит: общий, банковский, страховой: Учебник/Под ред.проф. В.П.Суйца. 2-е изд. –М.: ИНФРА-М, 2005.